

O'SMALAR. ONKOLOGIK YORDAMNI TASHKIL ETISH

Xolmatova Saida Topvoldi qizi

*Andijon viloyati Paxtaobod tuman Abu Ali ibn Sino
nomidagi jamoat salomatligi tehnikumi o'qtuvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smalar sindromi tushunchasi, uning kelib chiqish mexanizmlari, klinik belgilari hamda tashxis qo'yish usullari yoritilgan. Genetik omillar, atrof-muhit ta'siri va organizmdagi hujayraviy o'sishning buzilishi natijasida yuzaga keladigan o'smalar rivojlanishiga oid ilmiy asoslar tahlil qilingan. Shuningdek, o'smalar sindromini erta aniqlashning ahamiyati, davolash strategiyalari va profilaktika choralariga e'tibor qaratilgan. Maqola klinik amaliyotda uchraydigan asosiy sindromlar va ularni boshqarish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *O'smalar sindromi, neoplaziya, genetik omillar, onkologiya, o'sma rivojlanishi, biopsiya, erta tashxis, davolash usullari, profilaktika, klinik belgilar*

Annotation: *This article discusses the concept of tumor syndrome, its underlying mechanisms, clinical manifestations, and diagnostic approaches. It examines scientific foundations related to tumor development caused by genetic factors, environmental influences, and disruptions in cellular growth regulation. Special attention is given to the importance of early detection, treatment strategies, and preventive measures. The article also covers the main tumor-related syndromes encountered in clinical practice and modern approaches to their management.*

Keywords: *tumor syndrome, neoplasia, genetic factors, oncology, tumor development, biopsy, early diagnosis, treatment methods, prevention, clinical symptoms*

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие опухолевого синдрома, его механизмы возникновения, клинические проявления и методы диагностики. Анализируются научные основы развития опухолей, обусловленных генетическими факторами, воздействием окружающей среды и нарушением клеточного роста. Особое внимание уделяется значению раннего выявления, лечебным стратегиям и профилактическим мерам. Статья включает описание основных опухолевых синдромов, встречающихся в клинической практике, и современных подходов к их лечению и контролю.*

Ключевые слова: *опухолевый синдром, неоплазия, генетические факторы, онкология, развитие опухолей, биопсия, ранняя диагностика, методы лечения, профилактика, клинические признаки*

O'SMALAR. ONKOLOGIK YORDAMNI TASHKIL ETISH

O'smalar haqida tushuncha. O'sma deganda to'qimalarning patologik ko'payishi tushuniladi. U turli xil sabablarga ko'ra hosil bo'ladi va normal moddalar almashinuvi holatlari bilan farq qiladi.

O'smaning xususiyati hujayralarning beto'xtov ko'payishi hisoblanadi. Gistologik jihatdan ko'pchilik o'smalar a'zo yoki to'qimalarga birmuncha o'xshash tuzilgan. O'sma o'zini tashkil qilgan asli to'qima (parenxima) va ushlab turadigan to'qima – tomirlar, nervlar, biriktiruchi to'qima (stroma)dan iborat. Shu bilan birga o'smaning tuzilishi sog'lom a'zo yoki to'qimaning tuzilishidan katta farq qiladi. Havfsiz va havfli o'smalar tafovut qilinadi.

Havfli o'smalar yosh yetilmagan to'qimadan o'sib ko'payadi. Ular tez o'sish. Qo'shni to'qimalarga o'sib kirish va o'sma hujayralarining limfa (limfogen) yoki qon tomirlar (gemotogen yo'l) tizimi orqali a'zolar va to'qimalarga o'tishga (metastazlanish) moyilligi bilan ajralib turadi.

O'sma olib tashlangandan keyin u yana shu sohada o'sishi mumkin (retsediv). O'smaning qo'shni to'qimalarga o'sib kirishi o'sma hujayralarining to'qimalar ich- ichiga o'sib kirishi, qo'shni to'qimalarning yemirilishi va o'rin almasinuvi yo'li bilan sodir bo'ladi. Bunday o'sish infiltratsiya yo'li bilan o'sish deyiladi. Metastazik o'sma onalik o'sma tuzilishiga ega va huddi shunday tez suratda o'sishi bilan farq qiladi. Havfli o'smalardan organizmning holdan toyishi – kaxeziya kuzatiladi. Havfli o'smalar to'qimalarni yemirishi natijasida parchalanadi. Rivojlangan to'qimasiga qarab rak va sarkoma farqlanadi:

rak – epiteliy hujayralardan rivojlanib, eng ko'p uchraydigan havfli o'sma; sarcoma – biriktiruvchi to'qimadan rivojlanadigan havfli o'sma.

Havfli o'smaning rivojlanishida to'rt davr farqlanadi:

1. O'smaning mahalliy o'sishi;
2. O'smaning limfa yo'llari yaqinidagi limfa tugunlarigacha tarqalishi;
3. Metastazlarning gematogen yo'l orqali qo'shni a'zolariga o'sishi;
4. O'smaning butun organizm bo'ylab tarqalishi (disseminatsiyalanish).

Havfsiz o'smalar yetilgan to'qimalardan o'sib ko'payadi, qo'shni to'qimalarni ich-ichiga kirmasdan surib o'sadi, kapsula hosil qilib o'sadi, metastazlar bermaydi, umumiy holsizlikka sabab bo'lmaydi va kaxeziyaga olib kelmaydi, o'smalar yetilib parchalanmaydi.

O'smalarning ayrim turlari.

Papillomalar — epiteliy bilan qoplangan biriktiruvchi to'qima asosidan iborat so'rg'ich qavatning xavfsiz o'smalaridir. Ular terida yoki shilliq pardalarda (aktsariyat me'da, ichaklar va siydik ajratadigan apparatning shilliq pardalarida) kuzatilishi mumkin. Papillomalar xavfli o'smalarga aylanib ketishi mumkin.

Adenomalar bez to'qimalarida hosil bo'ladi. Ba'zan bezsimon rakka aylanishi mumkin. Ular gavdaning bez to'qimalari bo'lgan hamma a'zolarida, jumladan so'lak, limfa, sut, qalqonsimon, tuxumdon bezlari va hokazolarda uchraydi.

Dermoid kistalar xaltasimon tuzilmalar bo'lib, embrional rivojlanish davrida teri kichikroq bo'lakchalarining ichkariga kirishi natijasida vujudga keladi. Ularning zich pardasi bo'lib, bu parda teri yog'i bilan ko'chgan epiteliy tanachalari aralashmasi, tuk

(soch) dan iborat bo'tqasimon massani o'rab turadi. Ko'proq chanoq va oldingi ko'ks oralig'i sohasida joylashadi.

Rak epiteliy hujayralaridan rivojlanib, eng ko'p uchraydigan xavfli o'sma hisoblanadi. Rak epiteliy hujayralari bo'lgan hamma a'zolari zararlantiradi. Epiteliyning o'zgarib, atipik tuzilish xu- susiyatiga ega bo'lishi rak o'smasining alomati hisoblanadi.

Rak o'smasining tez o'sishi va qon bilan yetarlicha ta'min- lanmasligi o'sma qismlarining nekrozga uchrashiga, keyin par- chalanib, bo'shliqqa va yaralar hosil bo'lishiga olib keladi. Rak yarasi o'ziga xos belgilar bilan ajralib turadi: chetlari va tubi zich, gungurt, yog'li parda bilan qoplanadi. Rak o'smasining limfa va qon tomirlar bo'ylab metastazlar berishi xarakterlidir. Rak jarayoni, ko'pincha, kaxeksiya bilan o'tadi. Me'da rak bilan zararlanganda kaxeksiya, ayniqsa, tez kuzatiladi.

Fibroma — biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan xavfsiz o'sma. Organizmning deyarli barcha to'qimalarida uchraydi. Ko'proq bachadon, teri, teriosti to'qimasida joylashadi. O'sib, juda ham kattalashib ketishi mumkin.

Li poma — yog' to'qimasidan hosil bo'ladigan xavfsiz o'sma. Bo'laksimon tuzilishga ega, yupqa devorli kapsula bilan o'ralgan, sekin o'sadi. Yog' to'qimasi bo'lgan har qanday a'zoda joylashadi.

Xondroma — tog'ay to'qimalaridan tuzilgan xavfsiz o'sma.

Sekin o'sishi bilan ajralib turadi.

Osteoma — suyak to'qimasidan iborat o'sma. Sekin o'sadi.

Aynib, xavfli shaklga o'tib ketishi mumkin.

Sarkoma — biriktiruvchi to'qimadan rivojlangan xavfli o'sma. U tog'ay to'qimasidan paydo bo'lsa, xondrosarkoma, suyakdan hosil bo'ladigani — osteosarkoma, fassiyalarniki — fibrosarkoma, limfa tugunlaridan — limfosarkoma, qon tomirlaridan rivojlansa angiosarkoma deyiladi. Sarkoma o'zining kechish xususiyatiga ko'ra xavfli o'smalarning barcha alomatlariga ega.

Angioma — tomirlardan o'sib chiqadigan xavfsiz o'sma. U lim- fangiomalar va gemangiomalarga bo'linadi. Gemangiomalar o'z navbatida 1) oddiy yoki kapillar; 2) kavernoza yoki g'orsimon; 3) shoxlanadigan gemangiomalarga bo'linadi.

Katta gemangiomalarda o'sma sohasida, ko'pincha, tomir shovqinini eshitish mumkin.

Mioma — mushak to'qimasidan hosil bo'ladigan o'sma. Silliq mushak o'smasi — lipomioma, ko'ndalang-targ'il mushak o'smasi rabdomioma deyiladi. Ular sekin o'sadi.

Nevrinoma — nerv ustunining Shvann pardalaridan hosil bo'lgan o'sma (shvannoma). Kam uchraydi. Ko'pincha quymuch, o'rtalik va tirsak nervlarida joylashadi. O'tkazuvchi tur bo'yicha ro'y-rost og'riqqa sabab bo'ladigan kichikroq o'smasimon tuzilmadan iborat.

Glioma — bosh miya bilan orqa miya o'smasi. Xavfsiz o'sma- larga taalluqli bo'lishiga qaramay, infiltratlanib tez o'sishi, tevarak- atrofdagi to'qimalarga o'sib kirishi bilan xarakterlanadi. Glioma olib tashlangandan so'ng retsdiv yuz berishi mumkin.

Klinika amaliyotida patologiyaning eng xavfli turi bo'lgan xavfli o'smalarning ahamiyati katta.

Tashhis qo'yishda anamnez ma'lumotlari, bemor shikoyatlari, ob'ektiv tekshirish natijalari; aniq tashxis qo'yishga imkon beradigan tekshirishlar: sitologik tashxis – o'sma hujayralarini toppish maqsadida punktat yoki surtma olish, biopsiya – o'sma tuzilishini aniqlash maqsadida gistologik tekshirish uchun to'qima bo'lakchasini olish, obzor rentgenografiya, tomografiya, UTT, radioizotop tashxis, endoskopik tekshirishlar muhim ahamiyatga ega.

Davosi. Havfsiz osmalar – radikal xirurgik operatsiya.

Havfli o'smalar davosi: jarrohlik operatsiyasi (radikal yoki palliativ), nur bilan davolash, kimyoterapiya, gormonterapiya. Ko'pincha bu usullar birgalikda qo'llaniladi.

Rak oldi holati. Havfli o'smadan oldin yuzaga keladigan va ko'pincha havfli o'smaga aylanadigan turli xil holatlarni rak oldi holati deb ataladi. Bunday holatlar jumlasiga rivojlanish nuqsonlari, surunkali yallig'lanishlar, to'qima regeneratsiyasining buzilishi, giperplastik buzilishlar kiradi. Rak oldi kasalliklari bor kishilar dispenser hisobida turishi va yiliga kamida 2 marta ko'rikdan o'tishi shart.

Onkologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari

Onkologik kasalliklari bor bemorlarni parvarish qilishning o'ziga xos tomonlari bor. Bemorlardan haqiqiy tashxisni yashiriish, yani bemor ruhiyarini avaylab muhofaza qilish zarur. –Rak, –Sarkoma terminlarining o'rniga –yara,

–torayish, –qattiqlashish|| kabi so'zlarni ishlatish lozim. –Kanser, –s-r,

–neoplazma singari lotincha terminlarni ham qo'llamaslik kerak, ko'pchilik bemorlar terminologiyani yozshi bilishadi.

Ko'pchilik onkologik bemorlarning ruhiyati nozik bo'ladi, ular juda ta'sirchan bo'lib qoladilar, shuning uchun o'sma kasalligi og'irlashgan bemorlarni davolashning boshidayoq boshqa bemorlardan ajratgan maqqul.

Bemorga tegishli hujjatlar tasodifan uning qo'liga tushib qolishidan ehtiyor bo'lish kerak. Haqiqiy tashxis haqida bemorning eng yaqin qarindoshlariga (ota-ona, farzandlar, opa-ukalar) ma'lumot berish mumkin, biroq ularning bemorga haqiqiy tashxisni aytib qo'ymasliklarini tayinlash zarur.

Bemorga tegishli hujjatlarning tasodifan uning qo'liga tushib qolishidan ehtiyot bo'lish kerak. Bemorga turli-tuman taomlarni o'z ichiga olgan yuqori kaloriyali ovqat berilishi lozim. Rak in- toksikatsiyasi hisobiga ularda ishtaha yo'qolishini nazarda tutib, ishtahani yaxshilash maqsadida ularga xlorid kislota bilan pepsin va musallas buyuriladi. Odatda bemorlarda qabziyat kuzatiladi. Bunday hollarda haftasiga 2—3 marta tozalovchi huqnalar qili- nishi lozim bo'ladi.

✓ Xulosa

O'smalar sindromi zamonaviy tibbiyotning eng muhim muammolaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi ko'p omilli jarayonlar bilan bog'liq. Genetik mutatsiyalar, ekologik ta'sirlar va hujayra proliferatsiyasining buzilishi neoplastik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Klinika amaliyotida o'smalarni erta aniqlash, ularni tasniflash va davolash

strategiyasini to'g'ri tanlash bemor prognozini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smalar sindromining barcha bosqichlarida kompleks yondashuv — klinik ko'rik, laborator va instrumental diagnostika, biopsiya, molekulyar-genetik tekshiruvlar — kasallikni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqolada o'smalar sindromini aniqlash va davolashning zamonaviy yondashuvlari yoritilib, ushbu sohada ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurati ta'kidlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Abbas, A. K., Lichtman, A. H., & Pillai, S. Cellular and Molecular Immunology. Elsevier, 2022.
- Kumar, V., Abbas, A., & Aster, J. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th ed., Elsevier, 2021.
- Kufe, D. W., Pollock, R. E., Weichselbaum, R. R., et al. Cancer Medicine. 8th ed., BC Decker, 2020.
- Серова, Л. Д., Павлов, В. А. Онкология. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
- Хабилов, Ф. А. (ред.). Общая и клиническая онкология. Казань: Медицина, 2020.
- World Health Organization (WHO). Cancer: Key Facts. 2023.
- National Cancer Institute (NCI). Genetics of Cancer — PDQ®. NIH, 2024.
- Hanahan, D., & Weinberg, R. A. "Hallmarks of Cancer: The Next Generation." Cell, 2011.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Abbas, A. K., Lichtman, A. H., & Pillai, S. Cellular and Molecular Immunology. Elsevier, 2022.
- Kumar, V., Abbas, A., & Aster, J. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th ed., Elsevier, 2021.
- Kufe, D. W., Pollock, R. E., Weichselbaum, R. R., et al. Cancer Medicine. 8th ed., BC Decker, 2020.
- Серова, Л. Д., Павлов, В. А. Онкология. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
- Хабилов, Ф. А. (ред.). Общая и клиническая онкология. Казань: Медицина, 2020.
- World Health Organization (WHO). Cancer: Key Facts. 2023.
- National Cancer Institute (NCI). Genetics of Cancer — PDQ®. NIH, 2024.
- Hanahan, D., & Weinberg, R. A. "Hallmarks of Cancer: The Next Generation." Cell, 2011.